XALQ DEPUTATLARI SAYXUNOBOD TUMANI KENGASHI QARORI

120400, Sayxun shaharchasi, A.Navoiy ko'chasi, 2-uy, tel: (67) 333-21-36, email: sayxunobod.t@exat.uz

2023 - yil 29 - dekabr VI-70-180-9-126-K/23 Sayxunobod tuman hokimligi

2024-yilgi Sayxunobod tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash va mahalliy byudjetning daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunga muvofik, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/30-2-10351-son xati, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 7-noyabrdagi (02-1156) xulosasini inobatga olib Sirdaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01/38/1017-son xati hamda Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “2024-yil viloyat mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-60-194-9-0-K/23-sonli qaroriga asosan 2024-yilgi tuman mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda mahalliy byudjet daromadlari va harajatlarining prognoz ko‘rsatgichlarini belgilash maqsadida Xalq deputatlari Sayxunobod tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq hamda Sirdaryo vilyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 26-dekabrdagi 01/38/1017-son xati va Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi “2024-yil viloyat mahalliy byudjetini tasdiqlash hamda tuman va shaharlar mahalliy byudjeti daromadlari va xarajatlarining prognoz

ko‘rsatgichlarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-60-194-9-0-K/23-sonli qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari 27 044 559 000,0 (yigirma yetti milliard qirq to‘rt million besh yuz ellik to‘qqiz ming) so‘m, xarajatlari 66 577 131 000,0 (olmish olti milliard besh yuz yetmish yetti million bir yuz o‘ttiz bir ming) so‘m prognoz qilinganligi hamda viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 39 532 572 000,0 (o‘ttiz to‘qqiz milliard besh yuzi o‘ttiz ikki million besh yuz yetmish ikki ming) so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Sayxunobod tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil uchun Sayxunobod tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlari prognozlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun Sayxunobod tuman byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun Sayxunobod tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. 2024-yil uchun mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

8. 2024-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun undiriladigan yig‘imlarning cheklangan stavkalari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

9. 2024-yil uchun avtotransport yig‘imlarining stavkalari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

10. 2024-yil uchun Sayxunobod tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

11. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha 1 gektar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsentlar 9-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsentlari 11-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

14. 2024-yil uchun Sayxunobod tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 558 058 000 (besh yuz ellik sakkiz million ellik sakkiz ming) so‘m miqdorida belgilansin.

15. 2024-yil uchun Sayxunobod tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 607 800 000 (olti yuz yetti million sakkiz yuz ming) so‘mga belgilansin.

16. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslar yer solig‘i;

korxonalar aylanmasidan soliq;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan olingan daromadlar.

b) viloyatning viloyat mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

Qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar;

mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha, tabiiy gaz uchun qat’iy belgilangan stavkadagi aksiz solig‘i, neft mahsulotlari uchun aksiz solig‘ini (benzin, dizel, suyultirilgan gaz, motor moyi) tushumlar tegishincha 2023-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra, Sirdaryo viloyati aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

v) viloyat byudjeti hamda mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son qaroriga asosan 2024-yil

moliya yilidan boshlab:

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq byudjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanadi.

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika byudjeti, viloyatlarning viloyat byudjetlari va Toshkent shaharning shahar byudjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari uchun tuman byudjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 10 213 304 000.0 (o‘n milliard ikki yuzi o‘n uch million uch yuzi to‘rt ming) so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

18. Sayxunobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Xakimov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Abdullaev), tuman Soliq inspeksiyasi (I.Qo‘chqorov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal hizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash

zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

19. Sayxunobod tuman Soliq inspeksiyasi (I.Qo‘chqorov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga harid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

20. Sayxunobod tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Xakimov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh. Abdullaev):

Sayxunobod tumani byudjetlari tasdiqlangan xarajatlarining (zahira jamg‘armasi mablag‘larisiz) 5 foiziga teng miqdordagi mablag‘lar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga hamda mahalliy byudjetlarda shakllangan qo‘shimcha manbalarning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, Sayxunobod tumani Xalq deputatlari, Sayxunobod tuman Yoshlar ishlar bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan harid qilingan tovarlar va hizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

21. Mazkur qaror 2024-yil 1-yanvardan e’tiboran kuchga kiradi.

22. Mazkur qaror “Yangi hayot” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Sayxunobod tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

23. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi O.Niyazov zimmasiga yuklatilsin.

Rahbar **T.Jalolov**

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-YIL UCHUN SAYXUNOBOD TUMANI BO‘YICHA MAHALLIY BYUDJET DAROMADLARINING REJA KO‘RSATKICHLARI

	Daromad turlari	Summa ming so‘mda
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	7 142 077
2	Aylanmadan soliq	4 324 239
3	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	303 047
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	8 510 283
5	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noturuda	467 532
6	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 065 285
7	Ijara to‘lovlari	46 309
8	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	270 852
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	1 075 572
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 839 363
	JAMI	**27 044 559**
	Jami transfertlar	**39 532 572**
	shundan aktsiz solig‘i tushumlari hisobidan ajaratiladigan mablag‘lar	**14 085 190**
	Alkogolga aktsiz solig‘i (shu jumladan pivo)	6 105 470
	Mobil aloqaga aktsiz solig‘i	2 459 300
	Tamaki mahsulotlari	5 520 420
	JAMI DAROMAD	**66 577 131**

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-YIL UCHUN SAYXUNOBOD TUMAN MAHALLIY BYUDJETINING DAROMADLARI VA XARAJATLARI PROGNOZLARI

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad *	Xarajat**
Sayxunobod tuman	27 044 559	66 577 131

* Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i, tamaki mahsulotlari tushumlaridan ajaratiladigan mablag‘larni inobatga olgan holda

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
3-ilova

Sayxunobod tuman mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, jami		**66 577 131**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**66 577 131**
1	**Maktabgacha va maktab ta'limi bo‘limi**	**12 147 387**
	shu jumladan:	
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	12 147 387
	Maktabgacha ta'lim muassasalari	5 427 025
	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	2 346 710
	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	678 122
	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noturuda	3 695 530
2	**Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq**	**2 022 210**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 022 210
3	**Yuridik shaxslar yer solig‘i**	**2 856 850**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 856 850
	Madaniyat bo‘limi	142 918
	Madaniyat va axoli dam olish markazi	677 599
	Bolalar musiqa va san'at maktabi	2 036 333
4	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**9 204 568**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 204 568
	Sport maktabi	7 102 344
	Yoshlar ishlari agentligi	2 102 224
5	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**3 604 913**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 604 913
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 379 953
	Oila va xotin qizlari saqlab turish xarajatlari	1 224 960
6	**Qishloq xo‘jaligi bo‘limlari**	**1 918 363**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 918 363
	Veterenariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	937 048
	Xayvonlar kasalliklarini tashxisi va ozik-ovkat maxsulotlari xavfsizligi davlat markazlari	449 790

	Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazi	531 525
7	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 437 028**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 437 028
8	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 069 820**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 069 820
9	**Davlat soliq inspeksiyasi**	**3 517 924**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 517 924
10	**Tuman hokimligi**	**17 873 983**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	17 315 925
	Tuman hokimligini saqlash xarajatlari	2 851 939
	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	111 474
	Axborot kutubxona markazlari	419 409
	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyatini saqlash xarajatlari	249 731
	Hokim yordamchilarini saqlash qarajatlari	1 938 372
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	19 090
	Zahira jamg‘armasi	558 058
	Ijtimoiy ko‘nikma markazi	88 803
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	10 213 304
	Mahalla budjeti	865 745
11	**Tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari**	**10 482 143**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	10 482 143
	Nazoratsiz xayvonlarni tutish bilan bog‘liq xarajatlar	139 094
	Tuman ichki yo‘llarni ta‘mirlash xarajatlari	4 000 000
	Tuman ko‘chalarnit tashqi yoritish tarmoqlarini saqlash xarajatlari	298 868
	Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari	3 458 849
	Tuman dafn etish joylarini saqlash va obodonlashtirish xarajaatlari	1 114 482
	PQ -4351 qaror ijrosi bo‘yicha xarajatlar	1 215 550
	PQ-46 sug‘orish qaror ijrosi bo‘yicha xarajatlar	255 300

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
4-ilova

TUMAN MAHALLIY BYUDJETIGA AJRATILADIGAN TARTIBGA SOLUVCHI BYUDJETLARARO TRANSFERTLAR MIQDORLARI

ming so‘mda

Tuman nomi	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
JAMI	**39 532 572**
shundan	
Sayxunobod tumani	39 532 572

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-YIL UCHUN MOL-MULKNI IJARAGA BERUVCHI JISMONIY SHAXSLAR UCHUN BELGILANGAN IJARA TO‘LOVINING ENG KAM STAVKALARI

№	Ijaraga beriladigan mol-mulk turi	Belgilangan stavka miqdorini tavsiflovchi ko‘rsatkich	Oylik ijara stavkalarining eng kam miqdorlari, so‘mda	
			Guliston shahri	boshqa aholi punktlari
1.	**Uy-joylar:**			
	turar joy	umumiy maydonning 1 kv.metri uchun	12 000	5 000
	noturar joy		23 500	10 000
2.	**Avtomobil transporti:**			
	yengil avtomobil (yo‘lovchilar, bagaj tashishga mo‘ljallangan hamda haydovchi o‘rnini hisoblamaganda, o‘rindiqlari soni 8 tadan ko‘p bo‘lmagan avtotransport vositasi)	Summa ming so‘mda	780 000	
	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i		1 550 000	

Izoh: Mazkur stavkalar jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlariga soliq solish maqsadida qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
6-ilova

2024-YIL UCHUN TOVARLARNING AYRIM TURLARI BILAN CHAKANA SAVDO QILISH HUQUQI UCHUN UNDIRILADIGAN YIG‘IMLARNING CHEKLANGAN STAVKALARI

Yиg‘imlarning turlari	**Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)**		
	Guliston shahar	**boshqa shaharlar**	**boshqa aholi punkitlari**
Alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	840 000	600 000	300 000
Umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogolli mahsulotlarni sotish huquqi uchun undiriladigan yig‘im	420 000	300 000	150 000

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
7-ilova

2024-YIL UCHUN AVTOTRANSPORT YIG‘IMLARINNNG STAVKALARI

T/r	Yig‘imlar va to‘lovlar turlari	Yig‘imlar stavkalari
I	**Chet davlatlar avtotransport vositalarining O‘zbekiston Respublikasi hududiga kirganligi va uning hududi orqali tranziti uchun yig‘imlar**	**AQSH dollarida**
1	O‘zbekiston Respublikasi hududiga chetel davlatlaridan avtotransport vositalari kirganligi va tranziti uchun yig‘im, bitta avtotashuvchi kirganligi uchun stavkalari (2 - 7 bandlarda ko‘rsatilgan mamlakatlar bundan mustasno)	400
2	Tojikiston Respublikasi ıok avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘imlar:	
	10 tonnagacha	100
	10 tonnadan 20 tonnagacha	150
	20 tonnadan yuqori	200
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	300
4	Qirg‘iziston Respublikasi yuk avtotransport vositalarini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va tranzit harakatlanganligi uchun yig‘im	300
5	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	

	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	50
	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noturuda	100
	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	150
II	**Avtotransport vositalarini sotib olganlik va (yoki) O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘im**	
1	Yangi hamda foydalanishda bo‘lgan avtotransport vositalari bo‘yicha	Harid qilish narhining 1 foizi

Izoh:

1. O‘zbekiston Respublikasi hududi bo‘ylab xorijiy davlatlarning og‘ir yuk tashuvchi va yirik gabaritli transport vositalari o‘tganligi uchun mazkur ilovada nazarda tutilgan stavkalar bo‘yicha yig‘im to‘lanishi bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda qonunchilikda belgilangan miqdorlarda to‘lov undiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasiga uchinchi mamlakatlardan yuklar olib o‘tishda va O‘zbekiston Respublikasi hududidan yuklarni olib chiqishda Turkmaniston Respublikasi yuk avtotransport vositalaridan qo‘shimcha ravishda 175 AQSh dollari miqdorida yig‘im undiriladi.

3. Gumanitar yuklarni olib o‘tishda avtotransport vositalarining olib kirilishi va tranzitida undiriladigan yig‘imlar stavkasiga nisbatan 0,5 kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llaniladi.

4. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
8-ilova

2024-YIL UCHUN SAYXUNOBOD TUMAN MAHALLIY BYUDJETIGA UMUMDAVLAT SOLIQLARIDAN AJRATMALAR ME’YORLARI

(foiz hisobida)

T/r	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qar’ridan foydalanganlik uchun soliq, bunda sement xom ashyosi va sement ishlab chiqarishda foydalaniladigan ohaktosh mustasno	Ijara to‘lovlari	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bunda elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Aylanmadan olinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i
1	Sayxunobod tumani	100	100	100	100	100	100	100	10	10	20

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
9-ilova

QISHLOQ XO‘JALIGI UCHUN MO‘LJALLANMAGAN YERLAR UCHUN YURIDIK SHAXSLAR BO‘YICHA MUTLOQ MIQDORDA BELGILANGAN BAZAVIY SOLIQ STAVKASIGA KIRITILAYOTGAN KAMAYTIRUVCHI VA OSHIRUVCHI KOEFFITSIENTLAR

ming so‘mda

T/r	MFY lar nomi	Koeffisient (0,7 dan 1,3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (1 gektar uchun)
1	Baxmalsoy MFY	1,0	27 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1,0	27 000
3	Guliston MFY	1,0	27 000
4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	1,0	27 000
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1,0	27 000
6	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noturuda	1,0	27 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1,0	27 000
8	Nurobod MFY	1,0	27 000
9	Olgabos MFY	1,0	27 000
10	Yuridik shaxslar yer solig‘i	1,0	27 000
11	Paxtakon MFY	1,0	27 000
12	Paxtaobod MFY	1,0	27 000
13	Sintob MFY	1,0	27 000
14	Turon MFY	1,0	27 000
15	O‘zbekiston MFY	0,9	24 300
16	O‘rikzor MFY	0,9	24 300
17	Farovon MFY	0,9	24 300
18	Shodlik MFY	1,0	27 000
19	Yangi hayot MFY	0,9	24 300

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
10-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/p	Hudud nomi	Koeffisient (0,7 dan 1,3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2024-yil uchun (1 kv uchun)
1	Baxmalsoy MFY	1,0	215,10
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1,0	215,10
3	Guliston MFY	0,9	193,59
4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	1,0	215,10
5	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	1,0	215,10
6	Yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq noturuda	0,9	193,59
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1,0	215,10
8	Nurobod MFY	1,0	215,10
9	Olgabos MFY	1,0	215,10
10	Yuridik shaxslar yer solig‘i	0,9	193,59
11	Paxtakon MFY	1,0	215,10
12	Paxtaobod MFY	1,0	215,10
13	Sintob MFY	1,0	215,10
14	Turon MFY	1,0	215,10
15	O‘zbekiston MFY	0,9	193,59
16	O‘rikzor MFY	0,9	193,59
17	Farovon MFY	0,9	193,59
18	Shodlik MFY	1,0	215,10
19	Yangi hayot MFY	0,9	193,59

Xalq deputatlari Sayxunobod tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-70-180-9-126-K/23-son qaroriga
11-ilova

YURIDIK SHAXSLARNING MOL-MULKIGA SOLINADIGAN SOLIQ BO‘YICHA BELGILANGAN MINIMAL MIQDORGA KIRITILAYOTGAN KAMAYTIRUVCHI KOEFFITSIENTLAR

so‘mda

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0 dan 0,5 gacha)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2024-yil uchun (so‘m)
1	Sayxunobod tuman	0,50	600 000,0